



ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ

МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ

№3
26 МАЙ

Конференцияга қуйидаги шўъбалар бўйича мақол
қабул қилинади:

1. Санъат ва маданият фанлари
2. Тарих фанлари
3. Фалсафа фанлари
4. Филология фанлари
5. Педагогика фанлари
6. Психология фанлари
7. Социология фанлари
8. Ижтимоий-гуманитар фанлари

IC I WOR
JOUR

Google Sc



Academic
Resource

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI
"ORIENTAL ART AND CULTURE" ILMIY-METODIK JURNALI


"O'ZBEKISTONDA ILM-FAN VA TA'LIM"

KONFERENSIYASI TO'PLAMI
(6-QISM)

26 May 2020 yil



Google Scholar



Qo'qon shahri

MAKTABNING BARCHA BOSQICHLARIDA AMALIY INTEGRATIV TA'LIM ZARUR

Cho'liyeva G.T.
BuxDU

***Annotatsiya:** Maqolada o'qitishning boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarga o'qish darslarini an'anadagidan ko'ra samaraliroq o'tish va buning uchun integrativ yondashuvdan foydalanish muhimligi tahlilga tortilgan. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini o'zaro bog'lab o'qitish ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarda assotsiativ dunyoqarashni kengaytirishga va o'quvchi tomonidan dars mavzularining oson hamda tez o'zlashtirilishiga, natijada ona tili ta'limi maqsadi ning ro'yobi ta'minlanishiga yordam berishi masalasiga e'tibor qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, o'qish fani, ona tili ta'limi maqsadi, ona tili ta'limi usuli, assotsiativ dunyoqarash.*

Mohiyat tilshunosligi va ona tilining kognitiv-pragmatik ta'limi masalalari bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Zero, tilshunoslik tilimiz va o'zbek tili birliklarining tizimiy imkoniyatlarini ochib beradi, ona tili ta'limi shu imkoniyatlardan samarali foydalanib, ayni bir axborotni yuzlab usul-u vositalar bilan ifodalash yo'llarini, ulardan aniq bir sharoitda qay biri eng qulay va ta'sirchan ekanligini to'g'ri aniqlay olish hamda qo'llashni o'rgatadi. Alohida e'tirof etish kerakki, o'zbek substansial tilshunosligining yutuqlari "ichki bozor"ning zamonaviy ehtiyojlarini qondirish bilan chegaralanib qolmadi: chet el lingvistikasiga ham ta'sir ko'rsatdi va g'arb tilshunoslarining nazariga tushdi. Jumladan, o'zbek germanistlari olimi Nofiza Vohidovanning nemis, Jamila Jumaboyevaning ingliz tili leksikasini o'zbek substansial tilshunosligi yutuqlari asosida yangicha tadqiqi, unda olmon-u ingliz olimlarining o'zlari payqamagan va tavsiflardan chetda qolgan graduonimiya (til birliklarida ma'no darajalanishi) hodisasini Buxoro tilshunoslik maktabining vakillari bo'lgan o'zbek olimi ayollari ochib berganligi o'zbek matbuoti ("O'zbekiston ovozi" gazetasi//2008-yil, 29-yanvar soni)da ham, internet sahifalarida ham keng yoritilgan edi.

XX asr boshlarida jadid ma'rifatparvarlari orzu qilgan bolalarimiz kelajagi ravnaqi uchun "onalarga til o'rgatish" (Behbudiy) – zamonaviy o'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilash, uni ommaviy va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash – o'zbek formal (me'yoriy) tilshunosligi oldida turgan bosh maqsad edi. Formal tilshunoslikda esa empirik (fahmiy, hissiy, sensualistik, nominalistik, atomistik...) bilish usuli yetakchilik qilardi. Formal tilshunoslikni ratsional (idrokiy, aqliy, nazariy, teoretik...) bilish usuli yetakchilik qiladigan va til birliklarining *tizimiy imkoniyat*larini ochish va

tavsiflashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan substansial tilshunoslik almashtirdi. Bu yo'nalishda o'quvchiga retseptiv ta'limda bo'lganidek bilim – qoida, qonuniyat, xulosa va hukmlar tayyor holda berilib, ularda mazkur nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish va takrorlash talab etilmaydi; o'quv materiallari, ta'limiy topshiriqlar tizimi o'quvchilarga shunday taqdim etiladiki, u o'zi uchun zarur bo'lgan bilimni o'qituvchi rahbarligida mustaqil ish va izlanish natijasida egallaydi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti, o'qituvchi ta'lim jarayonining rahbari mavqeyida bo'ladi. O'quv-biluv jarayoniga shunday yondashgandagina u mustaqil ijodiy tafakkur sohibi va tadbirkor shaxsni yetishtirishga xizmat qila oladi.

Mustaqilligimizning maktab ta'limi oldiga davlat buyurtmasi sifatida qo'ygan va bu umumiy o'rta ta'limning malaka talablari sifatida voqelangan ko'rinishi bugungi ta'limning boshlang'ich, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy bo'g'inlarining har biri oldiga alohida maqsad qo'ydi. Demak, ona tili ta'limining barcha tur va bosqichlari oldida ham o'ziga xos yetakchi maqsad turadi.

Boshlang'ich bo'g'inda bu maqsad savodxonlikni ta'minlash, adabiy tilning asosiy me'yorlarini singdirish, ulardan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ta'limning bu bosqichida reproduktiv (retroskopik) ta'lim usul yetakchilik qiladi va ta'lim materiali, asosan, o'zbek formal tilshunosligi tavsiflariga tayanadi.

Umumiy o'rta ta'lim bo'g'inida ona tili ta'limi oldida turgan bosh maqsad "o'quvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish"dan iborat. Bu maqsad kognitiv-pragmatik ta'lim usuli yetakchiligida substansial tilshunoslik talqinlari va substansial-pragmatik tilshunoslik tayyorlash va ommalashtirishni maqsad qilib qo'ygan ona tili bo'yicha axborot banklaridan keng (har bir maktabxon istagan paytda bimalol foydalana oladigan darajada) ommalashtirilgan ko'rinishlari asosida amalga oshiriladi [1].

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini o'zaro bog'lab o'qitish ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarda assotsiativ dunyoqarashni kengaytirishga va o'quvchi tomonidan dars mavzularining oson hamda tez o'zlashtirilishiga, natijada ona tili ta'limi maqsadining ro'yobi ta'minlanishiga yordam beradi. Bilamizki, inson hayotida assotsiativ dunyoqarash juda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, maktab boshlang'ich ta'lim bosqichida bolaning ijobiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish bevisita assotsiativ dunyoqarashga bog'liq bo'ladi. Agar maktabgacha ta'lim sharoitida bola tafakkurida bir narsani ikkinchisiga bog'lash, ikki jism, voqea-hodisa, tushuncha yoki jarayon o'rtasidagi umumiy o'xshashlik, aloqadorlik va, albatta, farqli jihatlarini topish ko'nikmasi hosil qilingan bo'lsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bunday bola bilan ishlashda jiddiy muammolarga duch kelavermaydi.

Maktab va unda o'qitiladigan o'quv predmetlari bolaning murg'ak ongida hayot haqida mavjud jo'ngina tasavvurlar sirasiga yangidan yangi ma'lumot, tasavvur, tushunchalarni ketma-ket, izchillikda qo'shib boraveradiki, o'quvchi tafakkurida ko'rgan, o'qigan, eshitganlarini qayta ishlash, qayta ishlash uchun esa ularni tafakkurida borlariga bog'lab saralash, eng keraklisini ajratib olish va esda saqlashga harakat qilish jarayoni o'quvchi miyasida doimiy harakatda bo'lishi zarur. Zero, mazkur bog'lanishlar tufayli ongda paydo bo'lgan muayyan tasavvurlar o'xshashlik, yondoshlik va qarama-qarshilik belgilariga ko'ra, shunga bog'liq bo'lgan boshqa tasavvurlarni hosil qiladi.

Psixologlarning ta'kidicha, bir ruhiy jarayonning namoyon bo'lishi assotsiatsiya tufayli ikkinchi (avvalgisi bilan bog'liq bo'lgan) ruhiy jarayonni vujudga keltiradi. Asosan, uch xil assotsiatsiya mavjud: qarama-qarshilik assotsiatsiyasi – avval idrok qilingan qarama-qarshi sifatlariga ega bo'lgan narsa va hodisalarning birortasini takror idrok qilish yoki tasavvur qilish munosabati bilan boshqalari obrazlarining ixtiyorsiz ravishda ongda gavdalanishidan iborat qonuniyat[3]. Masalan, bola barcha ongli insonlar qatori "osmon" so'zini eshitganda yoki o'qiganda, beixtiyor "yer" so'zini, "farosatli" so'zini idrok etganda "kaltafahm" so'zini yoki "shirin" deganda "achchiq" so'zini eslashi zarur. Yondoshlik assotsiatsiyasi asosida esa muayyan mavjudlik, tushuncha yoki fikr tafakkurning qaysidir "burchagida turgan" ikkinchi, ba'zan uchinchi, to'rtinchi...tushuncha yoxud fikrni yetaklab kelishi muhim. Jumladan, o'quvchining "maktab" deganda "o'qituvchi", "o'quvchi", "sinf xonasi", "parta"... kabilarni eslashi.

O'xshashlik assotsiatsiyasi, tabiiyki, muayyan predmet, voqea-hodisa, jarayon, tushuncha kabilarning umumiy belgilari asosida bittasiga duch kelish tafakkurda boshqalarining ham obrazlari ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda tiklanishini ta'minlash jarayonlaridir. Bunda bola, masalan, kompyuterni ko'rganda noutbookni yoki netbookni eslashi shular jumlasidandir.

Barcha zamonlarda ham ta'lim berish ishi bilan mashg'ul haqiqiy ustozlar, muallim-u muallimalar ta'lim oluvchida, avvalo, assotsiativlikning mana shu uch turini shakllantirish va uni avaylab rivojlantirib borish ishi bilan shug'ullanishganki, bu yer yuzida inson zoti yashar ekan, juda zarurlik mohiyatini hech qachon yo'qotmaydi. Agar "bola yoshdan"ligini inobatga olsak, bu boradagi eng katta mas'uliyat boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Zero, ijtimoiy hayotning barcha qirralari kabi ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi ham assotsiatsiyaga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalarga bog'liq.

1-4-sinf o'qish darslarining maqsadi o'quvchida og'zaki nutqni takomillashtirish, o'stirish, buning uchun, avvalo, uning tafakkurini boyitish, so'z boyligini oshirish, fikr olish qobiliyatini shakllantirib, mustaqil fikrini erkin bayon qilishga o'rgatish hisoblanadi. Shu vazifalarni amalga oshirish esa har bir

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining bir soatlik o'quv mashg'uloti oldida turgan ijtimoiy buyurtma – dars maqsadini ro'yobga chiqarishini ta'minlaydi. Zero, o'qituvchi ta'lim mazmuni (dars mavzulari) asosida malaka talablari, ya'ni DTSda belgilangan boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yilgan talablar ni bajarishi va o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma, malaka hosil qilishi lozim. Bu esa o'qituvchidan ta'limning zamonaviy va ayni paytda samarali usul va vositalarini bilishni, bilganlaridan o'rinli foydalanishni va bu borada ta'limga integrativ yondashish orqali o'quvchi kompetentligini oshirib borishni talab etadi.

O'rta maxsus va oliy ta'limning turli bosqichlarida ona tilini o'qitish oldida ta'limning bo'g'in-u bosqichlariga mos ravishda ixtisosiy nutq madaniyati malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish maqsadi turadi. Bu maqsad reproduktiv va kognitiv ta'lim usullarning har birini o'z o'rnida mahorat bilan qo'llay olish hamda soha nutqining pragmatik tahlili qo'lga kiritgan tavsiflari axborot banki asosida amalga oshiriladi.

Silsiladan ko'rinadiki, ona tilini o'qitishning uzluksiz ta'lim tizimidagi holati va samaradorligi ham substansial-pragmatik izlanishlar muvaffaqiyati bilan uzviy bog'liq. Bu umumiy o'rta ta'lim bo'g'inida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Zeroki, bu bo'g'in oldida dunyoga bo'ylasha oladigan ijodiy tafakkur sohibi, mustaqil fikrli tadbirkor shaxsni yetishtirish maqsadi turibdi. Shuning uchun mazkur bo'g'inda ona tilidan har bir dars, mashg'ulot mohiyatan tafakkur ta'limini taqozo etadi. Buning asosi shuki, birinchidan, ona tili va tafakkur, fikrlash qobiliyati va nutq mohiyatan ayni bir narsaning ikki tomoni – ularni bir-biridan mutlaqo ajratib bo'lmaydi. Shaxsda ulardan biri shakllangan, ikkinchisi shakllanmagan, biri rivojlangan, ikkinchi rivojlanmagan bo'lishi mumkin emas – ular birga shakllanadi va rivojlanadi. Demak, milliy istiqloq sharofati bilan ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni, usul va vositalari yangilandi. Yangi maqsad har bir o'quv predmeti o'qituvchisidan o'quv-biluv jarayonini yangi mazmun asosida tashkil etishni va usul-u vositalarni rang-baranglikda boyitib borishni talab etmoqda. Buni to'g'ri anglay olgan o'qituvchigina davr talablariga mos tarzda ishlay oladi.

Inkor etib bo'lmaydigan bir haqiqat bor: Davlat tili maqomiga ega bo'lgan onadek mo'tabar tilimiz–nihoyatda boy til. Uning ta'limi jarayonida butun e'tiborimizni o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va tarbiyalash masalasiga qaratishimiz zarur. Buning uchun ona tili darslarida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligi va hamkorligida quyidagilarni bajara olishi muhim:

–muntazam (o'quvchi uchun) yangi bo'lgan so'zlar ustida ishlash va ta'lim oluvchining lug'at zahirasi boyitib borish;

–o'quvchida so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish hamda to'g'ri anglab yetish ko'nikmasini mustahkamlash;

–o'quvchilarni aniq talaffuz qilishga va xatosiz yozishga o'rgatish;

– o'quvchilarni so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matnlar tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matnlardagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatishga odatlantirish;

–bir fikrni turli vositalar bilan ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklay olishni uddalashga o'rgatish;

–nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirish.

Bu vazifalar ijrosi uchun maktabda o'quvchini ham, o'qituvchini ham qoidabozlikdan xalos etish, fanlararo integratsion ta'limga e'tibor qaratishi shart. Zero, lingvistik bilimlar ana shu vazifalarni amalga oshirish vositasi bo'lmog'i, o'quvchining aqliy faoliyati zinhor lingvistik qoidalar va til qurilishiga doir bilimlar bilan band qilib qo'yilmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013. – 216 bet.
2. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йиғини тезислари (Масъул мухаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2001. – 248 б.
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/assotsiatsiya-uz-2/>